O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI ILMIY-METODIK TA’MINLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI

“Tasdiqlayman”
Markaz direktori
I.Tursunaliyev
“___” ________ 2021-yil

# “SPORT TA’LIMI SIFATINI TA’MINLASHDA XORIJIY TAJRIBALAR”

moduli bo‘yicha

## ISHCHI O‘QUV DASTURI

**“Sport turlari bo‘yicha trener-o‘qituvchi”** yo‘nalishi bo‘yicha sport ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

Toshkent – 2021

Modulning ishchi o‘quv dasturi 2021-yil 4-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| A.R.Alimov | - | Markazning “Sport boshqaruvi” kafedrasi mudiri |
| Z.Sh.Xadiyatullayev | - | Markazning “Sport boshqaruvi” kafedrasi o‘qituvchisi |

**Taqrizchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| K.Ziyodullayev | - | O‘zDJTSU “Sport menejmenti va iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, iqtisod.f.n., dotsent. |
| P.Xodjayev | - | Markazning “Sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi“ kafedrasi professori., p.f.n. |

Ishchi o‘quv dasturi “Sport boshqaruvi” kafedrasining 2021-yil 4-yanvarda o‘tkazilgan 1 -sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

**Kafedra mudiri** **A.R.Alimov**



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**


1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.-T.O‘zbekiston, 2017.yil.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘RQ-394-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni, 2020 y.

4.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-653-sonli Qonuni 2020-yil 3-dekabr

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368 - sonli Farmoni.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 24-yanvar PF-5924-son

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportniyanada rivojlantirish chora-tadbirlari” 2020-yil 30-oktabr PF-6099-son

8.English Institute for Sport, Manchester URL: http://www.eis2win.co.uk

9.School of Sport, Exercise and Health Sciences, Loughborough University URL: http://www.lboro.ac.uk/departments/E-mail: sdc@lboro.ac.uk

10.Bundesinstitut fur Sportwissenschaft URL: http://www.bisp.de

11.Institut fur Angewandte Trainingswissenschaft URL: http://www.iat.uni-leipzig.de

12.United States Olympic Training Center Colorado Springs Cd URL: http://www.teamusa.org/about-usoc/ u-s-olympic-training-center-colorado-springs

13.United States Olympic Training Center Chula Vista http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-chula-vista

14.U.S. Olympic Training Center Lake Placid http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-lake-placid

15.Sports Science Institute of North Africa, Newlands URL: http://www.ssisa.com

16.Australian institute of Sport URL: http://www.ausport.gov.au/ais/.


**Elektron ta’lim resurslari**


17. http:// www.press-uz.info

18. http:// www.libsport.ru

19. http:// www.goskomsport.uz

20. http:// www.olympic.uz

21. http:// www.sports.uz

22. http:// www.minsport.uz

Professional sport faoliyati va uning boshqaruvida xalqaro tajribalarni o‘rganish. AQSHda sport ta’limi va uni o‘qitishning o‘ziga xos uslublari. AQSHda sport musobaqalarini tashkil etish. AQSHda sportchilarni saralash va musobaqalarga tayyorlash jarayoni.

Yevropa davlatlarida sportchilarni tayyorlash jarayoni va uning o‘ziga xos ahamiyati. Germaniyada professional sportchilarni tayyorlash va sport ligalarini boshqarishda xorijiy tajribalardan foydalanish. Sport ishlarini tashkil etishda Amerika va Yevropa modellarini o‘rganish

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-Mavzu. Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar.

**Reja:**

1. Professional sportni tashkil etishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi.
2. Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar.

Yaponiyada sport ishlarini tashkil etish va sportchilarni tayyorlash jarayoni. Janubiy Koreyada sport turlari va sport musobaqalarini o‘tkazish jarayoni. Xitoyda sportchilarni tayyorlash jarayoni va unga qo‘yiladigan talablar.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy sport ta’lim tizimining metodlaridan foydalanish. Xorijiy davlatlarda sport musobaqalarini tashkil etish va boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish. Ommaviy sport boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish uslublari bilan tanishish.

## Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



## Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** sport ta’lim muassasalari sport turlari bo‘yicha trener-o‘qituvchilari uchun xorijiy davlatlar amaliyotida sport ta’limi sifatini oshirish borasida erishilgan yutuq va tajribalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

**Modulning vazifalari:**

sport ta’lim muassasalari trener-o‘qituvchilarining sport ta’limi sifatini oshirishda xalqaro tajribalari borasida nazariy bilimlarni shakllantirish;

sport ta’lim muassasalari trener-o‘qituvchilarining xalqaro darajadagi pedagogik bilimlarini oshirish va kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish,

sport ta’limi sifatini oshirishda xalqaro tajribalarini pedagogik jarayonga joriy etish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish;

oliy sport ta’lim muassasalari trener-o‘qituvchilarining muntazam kasbiy faoliyatini o‘sishida xorij tajribalari, zamonaviy ta’lim metodlari, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

sport ta’lim muassasalari trener-o‘qituvchilarining ta’lim jarayonidagi muammolarini xorijiy ta’lim tajribalaridan foydalangan holda hal etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishga o‘rgatish.

## Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Sport ta’limi sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

sport ta’limi o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg`or xorijiy tajribalar;

sport ta’limida zamonaviy yondashuvlar, sport ta’limini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg`or xorijiy tajribalar;

sport ta’limi sifatini ta’minlashda ilg`or xorijiy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning metodik shart-sharoitlari **bilimlariga** ega bo‘lishi zarur.

**Tinglovchi:**

sport ta’limi sifatini ta’minlashda xorijiy tajribalar modul mazmunini tanlash;

sport ta’limi sifatini ta’minlashda xorijiy tajribalar bo‘yicha keys dasturiy xaritasini tuzish;

sport ta’limi sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar keys-texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

sport ta’lim oluvchilarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish sport ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish **ko‘nikmalarini** egallashi zarur.

**Tinglovchi:**

sport ta’limi sifatini ta’minlashda xorijiy tajribalar asosida o‘quv jarayonini “jonli”, ijodiy tashkil etish;

sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalarni o'rganishda innovatsion faoliyatni tashkil etish;

xorijiy tajriblarni shakllantirish asosida tafakkur yuritish orqali sport ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;

sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalar asosida sport ta'limida yangi nazariy va amaliy metodlarni ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalarini** egallashi lozim.

**Tinglovchi:**

ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda xorijiy davlatlar ta'lim tajribalaridan foydalana bilishlari;

pedagogik faoliyat olib borishda xorijiy davlatlar ta'limining ilg`or tajribalarini amaliyotda qo'llay bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

xorijiy davlatlar ta'lim tizimining tajribalaridan foydalangan holda pedagogik muammolarni tahlil etish, baholash kabi malakalarni egallashi;

sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalarni o'rganish asosida o'quvchilarni izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish **kompetentsiyalarni** egallashi lozim.

## Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi rejadagi "Sport ta'limni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari", "Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati", "Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar", "Amaliy xorijiy tilni o'rganishning intensiv usullari", "Sport inshootlari" kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar sport ta'limi sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalarni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompitentlikka ega bo'ladilar.



## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

| № | Mavzular | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlarda | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriyadagi o'quv yuklamasi | | | | Mustaqil tayyorgarlik |
| | | | Jumladan | | | | |
| | | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot | |
| 1. | Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishi | 2 | 2 | 2 | | | |
| 2. | Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi | 2 | 2 | 2 | | | |
| 3. | Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar | 2 | 2 | | 2 | | |
| | **Jami:** | 6 | 6 | 4 | 2 | | |

## NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

### 1-Mavzu. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishi.

**Reja:**

1. Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi.
2. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xusustiyatlari.

Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi strategiyasi. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy shakllari. Xorijiy mamlakatlarda sportni boshqarish tizimi va uning umumlashgan modeli. Xorijiy mamlakatlarda sportni boshqarishning nazariy va amaliy tajribalarini o'rganish.

### 2-Mavzu. Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi.

**Reja:**

1. Sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati.
2. Sport ta'limi sifatini oshirishda xalqaro tajribalarni o'rganish.